

## BIR ASRNING IKKI BUYUK DAHOSI

**Kamolova Nafisa Obloberdiyevna***Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani**18-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bir asrning ikki buyuk dahosi Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi haqida so‘z yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Adabiyot, Navoiy va Bobur asarlari, “Lison ut-tayr” dostoni, “Ko‘rlar va fil” hikoyasi.*

Sir emaski, bugungi globallashuv davrida yoshlarni goh ko‘ngilochar kompyuter o‘yinlari, goh qiziqarli multfilmlar yoki sarguzashtnamo kitoblar shaklida kirib kelayotgan bo‘hronlardan, dinu diyonatimiz, yashash tarzimiz, qarashlarimizga zid bo‘lgan vahshiy g‘oyalardan asrash masalasi kun tartibida turgan muhim mavzulardan biridir. Inson ongini asrash esa qalbni asrashdan boshlanadi. Buyuklardan biri aytganidek, qalb aynigan joyda butun vujud xastalikka yuz tutishi tabiiy. Xo‘sh, qalbni qanday asrash mumkin? U ko‘zga ko‘rinmasa, shoirlar tasvirlab bergan mavhum suratlaridan boshqa shaklu shamoyili bo‘lmasa?

Bu o‘rinda bizga boy adabiyotimiz, uning umrboqiy mavzulari, inson kamolotiga doir o‘lmas asarlar yordamga keladi. Xususan, o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi ikki buyuk siymo - Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini o‘rganish orqali chinakam inson hayoti qanday bo‘lishi kerakligi haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Navoiy va Bobur asarlarining tub mohiyatiga yetish uchun ularni tushunib o‘qish kerak bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, jarayon o‘z-o‘zidan mumtoz adabiyotni o‘qitish masalasiga borib taqaladi. Taassufki, haligacha maktab o‘quvchilarining Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi haqidagi tasavvurlari “G‘urbatda g‘arib” yoki “Tole’ yo‘q” deb boshlanuvchi ruboiylardan yoxud “Sher bilan Durroj” hikoyatidan nariga o‘tgani yo‘q. Aminmanki, qorako‘z farzandlarimizga adabiyot fanidan saboq berayotgan muallimlarning mumtoz adabiyot borasidagi bilimlari ham talab darajasida emas. Holbuki, adabiyot muallimi mumtoz adabiyotimizda mavjud vaznlar, she‘riy san’atlar haqida yetarlicha ma‘lumotga ega bo‘lishi, maktab darsligiga kiritilgan she‘riy matnlar va rivoyatlarni tahlil qila olishi zarur. Bu borada sizning fikrlaringiz qanday?

- “Qalbni qanday asrash mumkin?” Bu juda jiddiy savol. Ruhshunoslik nuqtai nazaridan yondashsak, yosh kitobxonlar qalbini asrash yoki aniqrog‘i, egallash uchun ularni mumtoz adabiyot namunalariga qiziqtirish kerak. Mening jahon adabiyoti haqidagi teleko‘rsatuvlarimiz ancha qiziqarli ekanligiga havasim keladi. Biz navoiyshunos va boburshunoslar ham chiqishlarimizda qiziqarlilik bilan muhimlikni qorishтира olsak, bunga erishamiz. Quyidagi misol qiziqtirishga ikki asos beradi: birinchisi, hikoyaning o‘zi qiziq, ikkinchisi, chala bilim xavfli ekanligidan ogohlantiradi. Mirzo Abdulqodir Bedil “Chala bilim bilimsizlikdan yomon”, degan. Maktabda a‘lo o‘qish, bilimlarni asosli, har tomonlama teran egallash lozim. Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida “Ko‘rlar va fil” hikoyasini keltirgan. Sanoiyning “Hadiqatul

haqiqa va shariat ul-tariqa” (“Haqiqat bog‘lari...”) va Jaloliddin Rumiyning “Ma’naviy masnaviy”larida mazmuni keltirilgan bu hikoyatni daho shoirimiz o‘z dostoni orqali o‘zbek adabiyotiga olib kirdi.

Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek mumtoz adabiyotini yoritib turgan ikki yorug‘ yulduzdir. Ularning zamondosh bo‘lishi, bitta asrda yashashi Yaratganning buyuk hikmati bo‘lsa ajab emas. Ijodining ilk bosqichlarida Navoiy Bobur uchun uning o‘z ta’biricha aytganda, “naziri yo‘q ustod” vazifasini bajargan. Tarixiy kitoblar Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zaro maktub yozishganlari haqida ma’lumot beradi. Boburning o‘zi ham “Boburnoma” asarida Navoiydan maktub olgani haqida yozar ekan, “Bu ikkinchi navbat Samarqandni olg‘onda Alisher tirik edi. Bir navbat manga kitobati ham kelib edi. Men ham bir kitobat yiborib edim, orqasida turkiy bayt aytib, bitib yiborib edim. Javob kelguncha tafriqa va g‘avg‘o bo‘ldi”, degan so‘zlarni keltiradi. Mazkur asarida Alisher Navoiy ijodi va shaxsiyati haqidagi fikrlarini ochiq-oydin yozgani, Navoiyning turkiy tilda bitgan g‘azallariga yuksak baho bergani ham uning Navoiyga bo‘lgan chuqur ehtiromidan dalolatdir. Lekin ayni paytda Bobur rostgo‘y tanqidchi hamdir. Chunonchi u Navoiy ruboiylarining vaznlari haqida fikr bildirar ekan, ayrim o‘rinlarda xatolar borligini ta’kidlaydi. Shuningdek, buyuk shoirning forsiy devonidagi g‘azallar ancha bo‘sh ekanini aytadi: “Yana “Mezon ul avzon” nomli aruz kitobini bitgan, ancha mulohazatalab: yigirma to‘rt ruboiy vaznining to‘rt vaznida xato qilgan. Ba’zi bahrlarning vaznlarida ham yanglishgan. Bu aruzdan xabardor odamga ma’lum bo‘ladi. Forsiy devon ham tartib bergan. Forsiy nazmda “Foniy” taxallusini qo‘llagan. Ba’zi baytlari yomon emasdur. Biroq aksari sust va bo‘shobdir”. Umuman olganda, Boburni Alisher Navoiy asarlari haqida tanqidiy fikr bildirgan kam sonli ijodkorlardan biri deyish ham mumkin.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. “Yoshlik”, 2013 yil, 2-son
2. Alisher Navoiy “Muhokamatul – lug‘atayn” asari
3. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”